



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING HARAKATLAR
STRATEGIYASI: MAKROIQTISODIY BARQARORLIK VA
INVESTITSION FAOLLIK.**

*Ipak yo'li innovatsiyalar universiteti
iqtisodd yo'nalishi bo'yicha o'qituvchisi:
Yusupova Nasiba Abdujabbarovna*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ‘O‘zbekiston strategiyasi’ asarlarining “Kuchli ijtimoiy siyosat: mohiyat va imkoniyatlar” nomli qismida quyidagi fikr keltirilgan. “Yangi O‘zbekistonni o‘z hayotidan rozi, baxtli insonlar mamlakatiga, har tomonlama rivojlangan ijtimoiy makonga aylantirish ushbu yo‘nalishdagi islohotlarimizning asosiy maqsadidir” Birinchi Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan ushbu maqsadni ro‘yobga chiqarish uchun bugun keng qamrovi yangiliklar qilinmoqda.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, Harakatlar strategiyasi, Prezident, ijtimoiy siyosat, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, «Elektron hukumat», investitsiya, mamlakat, iqtisodiyot, chora-tadbirlar, axborot tizimlar, qonunchilik, dasturlar, byudjet, aholi farovonligi, davlat, aholi,

Abstract: This article presents the following idea in the section “Strong social policy: essence and opportunities” of the works “Strategy of Uzbekistan”. “The main goal of our reforms in this direction is to transform the new Uzbekistan into a country of happy people, satisfied with their lives, into a comprehensively developed social space.” Today, extensive innovations are being made to realize this goal, which was put forward by our First President.



Keywords: New Uzbekistan, Action Strategy, President, social policy, macroeconomic indicators, "Electronic government", investment, country, economy, measures, information systems, legislation, programs, budget, population welfare, state.

“O‘zbekiston strategiyasi” asarlarining “Kuchli ijtimoiy siyosat: mohiyat va imkoniyatlar” nomli qismida quyidagi fikr keltirilgan: “Yangi O‘zbekistonni o‘z hayotidan rozi, baxtli insonlar mamlakatiga, har tomonlama rivojlangan ijtimoiy makonga aylantirish ushbu yo‘nalishdagi islohotlarimizning asosiy maqsadidir”

Birinchi Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan ushbu maqsadni ro‘yobga chiqarish uchun bugun keng qamrovli yangiliklar qilinmoqda. Ijtimoiy siyosat aholining turmush farovonligini oshirishga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar tizimidan iboratdir¹. Ijtimoiy siyosatning tor ma‘nodagi ta‘rifi davlatning ma‘lum sababga ko‘ra ijtimoiy jihatdan nochor bo‘lgan va o‘zining moddiy holatini o‘z kuchlari orqali yaxshilay olmaydigan aholi guruhlari yoki qatlamlarini (pensioner, yetim bolalar, talabalar, mehnat nogironlari hamda kam ish haqi oluvchi ishlovchilar kategoriyalari)ni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimidan iborat. Ijtimoiy siyosatning keng ma‘nodagi ta‘rifi jamiyatning barcha a‘zolarining ijtimoiy rivojlanishi uchun normal yashash va qulay imkoniyatlar yaratishga qaratilgan davlat chora-tadbirlari yig‘indisidir. Adolatli ijtimoiy siyosat aholining turmush farovonligini oshirishga qaratilgan har bir islohotga adolat nuqtayi nazaridan yondashish, jamiyat qatlamlarining hech qaysisini e‘tibordan chetda qoldirmaslik, ularga bir xilda va teng imkoniyat hamda sharoitlarni yaratib berish, jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga ko‘maklashish va boshqalardan iboratdir.

«2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish, erishilgan yutuqlarni

¹ «Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 01.06.2023 yildagi PF-82-son



mustahkamlab, tub islohot jarayonlarini yangi bosqichga ko'tarish, inson huquq va manfaatlari, uning qadri, sha'ni va g'ururini yetakchi o'ringa olib chiqish ustuvor vazifamizga aylangan hozirgi vaqtda yurtimizda tinchlik va barqarorlikni saqlash, davlatimizning hududiy yaxlitligi va bo'linmasligi, sarhadlarimiz daxlsizligini ta'minlash, millatlararo totuvlik, diniy bag'ri kenglik va hamjihatlikni mustahkamlashga intilish ko'p millatli xalqimizni yanada birlashtiradigan, yuksak marralarga safarbar etadigan beqiyos kuchga aylanib bormoqda».

Xalqimizning ulkan jasorati va matonati bilan 1991 yil 31 avgustda qo'lga kiritilgan O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish, yurtimizni har tomonlama erkin, obod va farovon mamlakatga aylantirishdagi ahamiyati ulkan, mohiyati esa beqiyosdir.

Prezidentimiz qarorida e'tirof etilganidek, "Aynan milliy mustaqillik el-yurtimiz uchun jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallab, huquqiy demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyatini qurish, shu jumladan, hayotning turli soha va tarmoqlarida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish uchun mustahkam zamin yaratib, erishayotgan barcha yutuq va marralarimizning asosiy manbai bo'lib kelmoqda"².

Ayniqsa, so'nggi yillarda, dunyoda koronavirus pandemiyasi va iqtisodiy inqiroz, keskin raqobat, turli qarama-qarshilik va ziddiyatlar tufayli yuzaga kelgan g'oyat og'ir va murakkab vaziyatda Yangi O'zbekistonni barpo etish va uni jahonga tarannum qilish yo'lida g'oyat muhim natijalarga erishilmoqda. Bunda dastlab Harakatlar strategiyasi, endilikda Taraqqiyot strategiyasi asosiy dasturilamal bo'lmoqda.

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, odatda rivojlangan mamlakatlar, keng doirali xalqaro tashkilotlar va moliyaviy institutlar tomonidan to'plangan

² «MUSTAQILLIK: YANGI O'ZBEKISTON VA INSON HUQUQLARI»
<http://insonhuquqlari.uz/oz/news/m8470>



ma'lumotlar asosida hisoblanadi. Ular, mamlakatning iqtisodiyotining holatini tahlil qilish, moliyaviy siyosatni shakllantirish va iqtisodiyotni boshqarishda qaror qabul qilish uchun juda muhimdir. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, umumiylik, yuqori darajada amalga oshirish va holatning o'zgarishi orqali belgilanadi. Ko'rsatkichlar odatda statistik ma'lumotlar, anketalar, hisobotlar va boshqa ma'lumotlar manbalari orqali to'plangan. Ular, mavjud ma'lumotlar asosida hisoblanib, ko'rsatkichlar grafiklarda, diagrammalarda yoki boshqa vizual usullarda namoyish etiladi. Bunday shakllanishi, iqtisodiyotning umumiy holatini tushuntirishda va moliyaviy siyosatni shakllantirishda juda muhim ahamiyatga ega.

Maqolamizda, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va ularning shakllanishi haqida batafsilroq tushuntirish uchun keng qamrovli va doimiy izlanishga ega bo'lgan mavzu ustida o'rganuvchilar uchun qulaydir. O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvida raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat hamda axborot tizimlari Mamlakatimizda ma'muriy tartibotlardan o'tishni soddalashtirish, aholi turmushi sifatini oshirish, investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga qaratilgan elektron hukumatni, shu jumladan davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimini modernizatsiya qilish va rivojlantirish borasida izchil choralar ko'rilmoqda. Shu bilan birga, raqamlashtirishni ta'minlashga va raqamli iqtisodiyotga o'tishga to'sqinlik qilayotgan qator hal qilinmagan muammo va kamchiliklar saqlanib qolinmoqda.

Xususan, davlat axborot tizimlarini rivojlantirishning yagona prinsiplari ishlab chiqilmagan, ushbu sohadagi tadbirlar esa o'zaro va boshqa axborot tizimlari bilan uzviy bog'lanmagan holda amalga oshirilmoqda. «Elektronhukumat» tizimi infratuzilmasi lozim darajada rivojlanmayapti, bu davlat xizmatlarini ko'rsatishda va idoralararo elektron hamkorlik qilishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo'llashga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. «Elektron hukumat» tizimini joriy etishda ta'sirchan



muvofiglashtiruv va yagona texnologik yondashuvning mavjud emasligi resurslarning nooqilona foydalanilishiga olib kelmoqda hamda tadbirlarning samaradorligini pasaytirmoqda.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, «Elektronhukumat» tizimining joriy etilishini ta'minlash, aholi, biznes va davlat o'rtasida samarali o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun qo'shimcha shart-sharoit yaratish maqsadida³, shuningdek, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq-O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2018 yil 3 iyuldagi PQ-3832-son qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi (keyingi o'rinlarda —Agentlik) raqamli iqtisodiyotni joriy etish va rivojlantirish sohasida vakolatli organ etib belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilindi. «Elektron hukumat» tizimini joriy etish raqamli iqtisodiyotning ajralmas tarkibiyqismi hisoblanadi; Agentlik elektron hukumat sohasidagi hamda davlat boshqaruvida axborot tizimlarini joriy etishda vakolatli organ hisoblanadi, ushbu sohada yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish hamda davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatini muvofiqlashtirish uchun mas'uldir; Agentlikning elektron hukumat sohasida, shuningdek, davlat boshqaruvida axborot tizimlarini joriy etish bo'yicha o'z vakolati doirasida qabul qilgan qarorlari ijrosini ta'minlash respublikaning barcha vazirliklari, idoralari va tashkilotlari uchun majburiy hisoblanadi.

Bugungi kunda har bir mamlakat iqtisodiyotining kelgusi taraqqiyoti, asosan investitsiyalarga bog'liq bo'lmoqda. Ayniqsa, mamlakatlarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishida investitsiyalar

³ «O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat hamda axborot tizimlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 13.12.2018 yildagi PF-5598-son qarori



alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli, mamlakatimizda ham investitsiya faoliyatini rivojlantirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28-yanvar 2022-yilda qabul qilingan, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan “Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'grisida”gi Farmonida belgilangan 100 ta maqsadning 26-maqsadida “Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralari ko'rish” belgilab qo'yilgan.

O'zbekistonda tadbirkorlik uchun qulay ishbilarmonlik muhiti, keng huquqiy kafolat va imtiyozlar tizimi hamda xorijiy investorlar uchun qulay investitsiya muhitining va ular kiritgan mablag'larning yuqori iqtisodiy samaradorligiga erishishini ta'minlaydigan tegishli huquqiy bazaning yaratilganligi investitsiya faolligining sezilarli darajada kuchayishi va iqtisodiyotimizga yo'naltirilayotgan kapital qo'yilmalar hajmining o'sishi uchun imkon bermoqda. “Investitsiya” atamasi lotin tilidagi “invest” so'zidan olingan bo'lib “qo'yish”, “mablag'ni safarbar etish”, “kapital qo'yilmasi” ma'nosini beradi. Keng ma'noda investitsiya mablag'ni ko'paytirib va qaytarib olish maqsadida kapitalni safarbar etishni bildiradi. Har qanday davlatga investitsiyalarning kirib kelishi mazkur mamlakatdagi investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi omillarga bevosita bog'liq. Investitsiya muhiti investitsiya resurslarini joylashtirish uchun umumiy mezon bo'lib, birinchi navbatda, kapital mablag'lar daromadlilikini ta'minlab beradi. Sodda qilib aytganda, investitsiya muhiti investitsiya munosabatlarini amalga oshirish mumkin bo'lgan imkoniyatlar va qulayliklar majmuasini o'zida aks ettirgan voqelikdir.

Milliy qonun hujjatlari talablariga muvofiq kiritilgan investitsiya keyinchalik u bilan bog'liq investitsiya faoliyatida qonuncilik talablari buzilishiga yo'l qo'yilgan bo'lsa ham, xalqaro investitsiya shartnomasi bilan



himoya qilinadi. Amalda bu qoida investitsiya kiritilganidan so'ng qabul qiluvchi davlat siyosatining o'zgarishi yuz berganda investor huquqlarini himoya qilish uchun kerak. Shu bilan birga yolg'on ma'lumotlar yoki pora berish kabi jiddiy qonun buzilishi asosida kiritilgan bo'lsa, bunday investitsiya shartnomalar bilan himoya qilinmasligi mumkin. Va nihoyat, milliy qonunga muvofiqlik talabi ichki qonunchilikda belgilab qo'yilgan investitsiya ta'rifini uning xalqaro investitsiya shartnomasida keltirilgan ta'rifdan ustunligini anglatmaydi. Zero shartnoma bilan himoyalangan investitsiya ta'rifi milliy qonunchilik asosida emas, balki, tegishli xalqaro shartnomada belgilab qo'yiladi. 2021 yilgi Prezident saylovidan so'ng mamlakatimizda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishga kirishilganini alohida ta'kidlash lozim. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan va saylov jarayonida o'ziga xos umumxalq muhokamasidan o'tkazilgan bu muhim konseptual hujjatda islohotlarimizning uzviyligi va davomiyligini ta'minlash maqsadida **“Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari”** degan tamoyil asosiy g'oya va bosh mezon sifatida kun tartibiga qo'yildi.

Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi 26-maqsadida mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSH dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko'rish nazarda tutilgan⁴. Ushbu maqsadni amalga oshirishda hududlar sanoat salohiyati va faolligini oshirish zarurati tug'ilib, bunda to'g'ridan to'g'ri (bevosita) mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bevosita investitsiyalar odatda ko'plab xalqaro tashkilotlar, siyosatchilar va iqtisodchilar tomonidan iqtisodiy o'sishni ta'minlash, shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy muammolarini hal qilish omili

⁴ «AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI»
Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2024-yil, sentyabr 9-son



sifatida ko'rib chiqiladi. Mavjud tadqiqotlarga ko'ra, bevosita investitsiyalar samarali ravishda joylashtirilganda mamlakat va hududlarning iqtisodiy o'sishini yuzaga keltiradi. Ba'zi ilmiy manbalarda esa bevosita investitsiyalar iqtisodiy o'sishga erishishning eng samarali usuli deb hisoblanadi. O'zbekistonda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish faolligini aniqlashda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish tarmoqlarining ko'rsatkichlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. So'nggi besh yillikka nazar tashlansa, O'zbekiston iqtisodiyotida sezilarli tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirildi.

YAIM tarkibida mahsulotlarga sof soliqlarning ulushi 3,8 foiz bandiga kamayib, tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati 92,8 foizga yetdi. Bu esa mamlakatda ishlab chiqarish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan iqtisodiy siyosat yuritilayotganidan dalolat beradi. YAIM (tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati) tarkibida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining ulushi 5,3 foiz bandiga qisqardi. E'tiborlisi shuki, bu tarmoqning ulushi 2012–2016-yillarda (avvalgi besh yillik) 0,5 bandga qisqargan. O'z navbatida, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish uchun 2022 yilga – «Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili» deb nom berilgani bejiz emas. Inson qadri degani, sodda qilib aytganda, insonni ulug'lash va insonlar o'rtasidagi o'zaro mehr-muhabbatni qadrlash deganidir.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasiga muvofiq, 2022–2026-yillarda yuqorida ta'kidlab o'tilgan yo'nalishlarda amalga oshirilgan islohotlarni samarali davom ettirish, mavjud resurs va imkoniyatlarni safarbar etgan holda, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot hajmini yanada oshirish, 2030 yilga borib esa, O'zbekiston jon boshiga



hisoblaganda, aholi daromadlari o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga kirish maqsad qilingan⁵.

Bunga esa, o'z navbatida, xususiy sektorni rag'batlantirish va uning ulushini oshirish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish va drayver sohalarda klaster tizimini rivojlantirish orqali erishish ko'zda tutilgan.

Taraqqiyot strategiyasida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlab, inflyatsiya darajasini belgilangan 5 foizgacha pasaytirish navbatdagi vazifa sifatida belgilandi. Zero, mamlakatda ichki narxlar barqarorligining ta'minlanishi makroiqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikning kafolati hisoblanib, bu esa, o'z navbatida, iqtisodiy islohotlarni jadallashtirish hamda rivojlantirish dasturlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda zarur mezon sanaladi.

Shuningdek, byudjet mablag'laridan oqilona foydalanish tizimi takomillashtirildi, bunda Oliy Majlisning byudjet jarayonidagi roli va o'rnini oshirildi, mahalliy hokimiyat vakillik organlarining vakolatlari kengaytirildi, «Tashabbusli byudjet» loyihasi ishga tushirildi.

Hozirgi kunda adolatli ijtimoiy yo'naltirilgan jamiyat qurish sari intilayotgan mamlakatimiz uchun insonga munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda yurtimizda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi yanada takomillashtirildi. Buning uchun aholining yordamga muhtoj, zaif qatlamini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, fuqarolarimizni ishsizlikdan himoya qilish, bandligini ta'minlash, hududlarimizda kambag'allikni qisqartirish hamda ayrim sabablarga ko'ra vaqtincha ishsiz bo'lganlarni kasbga tayyorlash borasida ijtimoiy yordam va xizmatlar sifatini yaxshilash sohasida juda ko'p ishlar qilinmoqda.

⁵ «MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA TARKIBIY O'ZGARISHLARNING AHAMIYATI VA O'RNINI»
PEDAGOG RESPUBLIKA ILMIY JURNALI 6 – TOM 3 – SON / 2022 - YIL / 15 - MART



Yaqinda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya ham xalqimiz tomonidan ijtimoiy masalalarga oid qator fikr-mulohaza va takliflar bildirilishi natijasida ijtimoiy davlat tamoyiliga oid tegishli normalar bilan boyitildi. U sifatli ta'lim va tibbiy xizmat, ijtimoiy himoyalanmagan yoki ehtiyojmand qatlamni qo'llab-quvvatlash, qulay mehnat sharoitlarida ishlash, adolatli haq olish, ishsizlikdan himoyalanish, ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarni uy-joy bilan ta'minlashga qaratilgan qoidalar bilan yanada takomillashtirildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada O'zbekiston ijtimoiy davlat ekani qayd etildi. "Ijtimoiy davlat" g'oyasi mazmun-mohiyati Konstitutsiyaga kiritilayotgan qator boshqa normalarda ham o'z ifodasini topgan⁶.

Ijtimoiy davlat har bir inson uchun farovon turmush darajasi, xususan, sifatli ta'lim, kafolatli tibbiy xizmat, munosib mehnat sharoiti va adolatli ish haqi, pensiya va nafaqalar, ijtimoiy yordam va xizmatlar tizimi yaratilgan, uy-joyga ega bo'lish sharoiti mavjud bo'lgan, ijtimoiy tafovutlar yumshatilgan, muvozanatlashgan, hech bir fuqaro o'z muammolari bilan yolg'iz qolmaydigan adolatli davlatdir.

2022-yilning 20-dekabr kuni Prezidentimiz Oliy Majlis va xalqimizga Murojaatnomasida ham ushbu masalaga e'tibor qaratgan holda: "Biz yangi O'zbekistonni "ijtimoiy davlat" tamoyili asosida qurishni maqsad qilyapmiz. Buni Konstitutsiyada mustahkamlashimiz kerak", degandi.

Ushbu qo'shimchalar natijasida nimalar o'zgaradi?

Birinchidan, ishsizlikdan himoya qilish choralarini ko'rish va bandlikni ta'minlash maqsadida kasbga tayyorlash tizimi tashkil etilishi natijasida fuqarolarni ish bilan ta'minlash sharoitlari yaratiladi.

Ikkinchidan, "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" va "Temir daftar"ga kiritilgan ijtimoiy ehtiyojmand toifalarni uy-joy bilan ta'minlash

⁶ «ADOLATLI IJTIMOY SIYOSAT YURITISH, INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH» "PEDAGOGS" international research journal Volume-58, Issue-1, May -2024



bo'yicha zarur iqtisodiy sharoitlar yaratiladi (ijtimoiy uylar qurish, subsidiyalar ajratish va h.k.).

Uchinchidan, barcha uchun tez va shoshilinch tibbiy yordamni ham o'z ichiga oladigan tibbiy yordamning kafolatlangan hajmi davlat hisobidan ko'rsatilishi belgilanishi tibbiy xizmat bilan qamrov darajasi va sifatini oshiradi.

To'rtinchidan, alohida ehtiyojlarga va individual imkoniyatlarga ega bolalar uchun inklyuziv ta'lim tashkil etilishi natijasida ularning rivojlanayotgan qobiliyatini va o'z individualligini saqlab qolish huquqini hurmat qilish prinsipi amalda ishlashi ta'minlanadi.

Beshinchidan, nogironligi bo'lgan shaxslar va aholining boshqa ijtimoiy ehtiyojmand toifalariga ijtimoiy sohalarda boshqalar bilan teng imkoniyatlar yaratilishi natijasida ularning hayot sifati va darajasini oshirishga erishiladi.

Oltinchidan, davlat tomonidan iqtidorli va iste'dodli bolalar va yoshlar tizimli qo'llab-quvvatlanishi ularga ijodiy, intellektual va tadbirkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatini taqdim etadi.

2022-yil 28-yanvar kuni Prezidentning "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Unda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida yetti yo'nalishda 100 ta maqsad belgilab olindi⁷. 100 ta maqsaddan 34 tasi bevosita ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgani ham mamlakatimizda ijtimoiy davlat g'oyasi ilgari surilayotganiga yaqqol misoldir.

Taraqqiyot strategiyasida inson qadrini ulug'lashga yo'naltirilgan ijtimoiy himoya siyosati bo'yicha qator vazifalar belgilab olindi. Xususan, 2026-yilga qadar ehtiyojmand aholi ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam bilan to'liq qamrab olish, birinchi — to'rtinchi sinf o'quvchilarini davlat byudjeti mablag'lari hisobidan bepul ovqat (nonushta yoki tushlik) bilan ta'minlash,

⁷ «Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish mehrli jamiyatimizning yangi qiyofasiga asos bo'lmoqda» 11 Iyun 2025 Ijtimoiy hayot



2023-yil 1-yanvardan boshlab pensiyani hisob-kitob qilish uchun ish haqining maksimal miqdorini pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining o'n barobaridan o'n ikki barobarigacha oshirish, ayollarga pensiya hisoblashda ularning bolani parvarishlash ta'tilida bo'lish vaqtining hammasini jamlaganda ish stajiga qo'shib hisoblanadigan 3 yillik davrni 6 yilga oshirish hamda bolalikdan nogironligi bo'lgan bolalarga 18 yoshgacha qaralgan davrni pensiya tayinlashda ish stajiga qo'shib hisoblash shular jumlasidandir. Shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarga jinoyat ishlari bilan bir qatorda fuqarolik va ma'muriy ishlar bo'yicha ham davlat hisobidan bepul yuridik yordam ko'rsatish vazifalari qat'iy belgilab olindi.

Mazkur hujjatda aholi uchun majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, ehtiyojmand qatlamlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish qayd etildi. Unda, xususan, aholining muhtoj qismini zamonaviy protez-ortopediya buyumlari va reabilitatsiya vositalari bilan ta'minlash darajasini 60 foizga yetkazish, majburiy ijtimoiy kafolatlar bo'yicha qonunchilikni tizimlashtirish va takomillashtirish, belgilangan ijtimoiy himoyaning qat'iy ta'minlanishini nazorat qilish, majburiy ijtimoiy kafolatlardan, shu jumladan, ijtimoiy himoya turlaridan foydalanish imkoniyatini sohani raqamlashtirish hisobiga kengaytirish, ushbu jarayoniga ochiqlik va shaffoflik tamoyillarini joriy qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish qat'iy belgilandi.

Bundan tashqari, "Yangi O'zbekiston" massivlarini rivojlantirish va aholining uy-joyga bo'lgan talabini qondirish maqsadida 2023-yilda ana shunday massivlar va 161 ta boshqa joyda, jumladan, xususiy pudrat tashkilotlari tomonidan yangi uy-joylar qurishning yillik hajmlari 1,6 baravar oshirilib, 90 mingga yetkaziladi. Bunda uy-joy hamda ijtimoiy va savdo obyektlarini loyihalashtirish va qurishda avtotransport vositalari turargohlari, shu jumladan, ko'p qavatli va yerosti avtoturargohlar majburiy ravishda barpo etilishi ta'minlanadi. 32 ming fuqaroga bozor tamoyillariga



asoslangan ipoteka kreditlari, shuningdek, 11 ming fuqaroga boshlang'ich badal va foiz to'lovlarining bir qismini qoplashga subsidiyalar ajratish uchun davlat byudjetidan yetarli mablag' yo'naltirish, aholini bozor tamoyillari asosida ipoteka kreditlari orqali uy-joy bilan ta'minlashning yangi tartibi doirasida mulk huquqi asosida uy-joyga ega bo'lmagan fuqarolar uchun Toshkent viloyatida tajriba-sinov tariqasida "Mening birinchi uyim" dasturini amalga oshirish kabi ustuvor vazifalar belgilangani uy-joyga ehtiyojmand aholini davlat tarafidan qo'llab-quvvatlash yo'lidagi faoliyatning uzviy davomidir.

Davlat dasturida og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan 75 ming nafar ishsiz xotin-qizni davlat hisobidan mehnat bozorida talab yuqori kasb-hunarlarga o'qitish vazifasi belgilangan edi. Ushbu band ijrosini ta'minlash maqsadida 77 ming 963 xotin-qizning manzilli ro'yxati shakllantirildi. Ro'yxat asosida har bir hududning o'ziga xos drayveridan hamda xotin-qizlarning qiziqishlaridan kelib chiqib, yanvar-mart oylari davomida tuman (shahar) kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish markazlari yo'llanmasi orqali 21,6 ming xotin-qiz kasb-hunarga o'qitishga jalb qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. «Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining , 01.06.2023 yildagi PF-82-son Farmoni.
2. «O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat hamda axborot tizimlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 13.12.2018 yildagi PF-5598-son qarori.
3. «Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va ularning shakllanishi» www.worldlyjournals.com.1-son,aprel,2024.Worldly know ledge nashriyoti.



4. «Mustaqillik: Yangi O'zbekiston va inson huquqlari» [http://inson.huquqlari.uz/oz/news/m 8470](http://inson.huquqlari.uz/oz/news/m8470).
5. “Investitsiya faoliyatining Xalqaro huquqiy kafolatlari”, Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari O'zbekiston Respublikasi Toshkent – 2023.
7. «Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda tarkibiy o'zgarishlarning ahamiyati va o'rni» Pedagog Respublika ilmiy jurnali 6 – Tom 3 – SonN / 2022 - YIL / 15 – mart.
8. «Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish» “Pedagog” international research journal Volume-58, Issue-1, May -2024
9. «Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish mehrli jamiyatimizning yangi qiyofasiga asos bo'lmoqda» 11 Iyun 2025 Ijtimoiy hayot.